ZAMONAVIY ADABIY TA'LIM METODIKASI FANINING MOHIYATI VA TUZILISHI UDC

Saribayeva Maxsuda Urinbayevna
pedagogika fanlari nomzodi,
Guliston davlat universiteti dotsenti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy adabiy ta'lim metodikasining mustaqil ilmiy-pedagogik fan sifatidagi mohiyati, predmeti, maqsadi va strukturaviy tuzilishi atroflicha tahlil qilingan. Muallif o'zbek adabiyotini o'qitish metodikasini an'anaviy didaktika va zamonaviy pedagogika tutashgan nuqtadagi kompleks bilimlar tizimi sifatida baholab, uning to'rt asosiy mohiyatini (nazariy, amaliy, tarbiyaviy va innovatsion) ilmiy-pedagogik jihatdan asoslab beradi. Tadqiqotda adabiyot darslarida kompetensiyaviy yondashuv, raqamli texnologiyalar (Moodle, Quizizz, VR, podkastlar) hamda interfaol metodlardan foydalanishning metodik mexanizmlari va o'quvchi shaxsida milliy o'zlikni anglash hamda estetik didni shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy ta'lim metodikasi, nazariy mohiyat, amaliy mohiyat, tarbiyaviy model, innovatsion pedagogika, raqamli texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация: В статье подробно анализируются сущность, предмет, цель и структурная структура современной методики литературного образования как самостоятельной научно-педагогической дисциплины. Автор оценивает методику преподавания узбекской литературы как комплексную систему знаний на стыке традиционной дидактики и современной педагогики и научно-педагогически обосновывает ее четыре основные сущности (теоретическую, практическую, воспитательную и инновационную). В исследовании освещены вопросы компетентностного подхода, цифровых технологий (Moodle, Quizizz, VR, подкасты) и методические механизмы использования интерактивных методов на уроках литературы, а также вопросы формирования национального самосознания и эстетического вкуса в личности учащегося.

Ключевые слова: Методика литературного образования, теоретическая сущность, практическая сущность, воспитательная

модель, инновационная педагогика, цифровые технологии, компетентностный подход.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the essence, subject, purpose, and structural structure of modern literary education methodology as an independent scientific and pedagogical discipline. The author evaluates the methodology of teaching Uzbek literature as a complex system of knowledge at the intersection of traditional didactics and modern pedagogy, scientifically and pedagogically substantiating its four main essences (theoretical, practical, educational, and innovative). The study highlights the competence-based approach, methodological mechanisms for using digital technologies (Moodle, Quizizz, VR, podcasts) and interactive methods in literature lessons, as well as issues of forming national identity and aesthetic taste in the student's personality.

Keywords: Methodology of literary education, theoretical essence, practical essence, educational model, innovative pedagogy, digital technologies, competency-based approach.

Zamonaviy adabiy ta'lim metodikasi – bu o'zbek adabiyotini o'qitish jarayonida ta'lim mazmuni, maqsadi, shakl va metodlari, didaktik vositalari, o'quvchi shaxsining kompetensiyalarini shakllantirish me- xanizmlarini o'rganuvchi mustaqil ilmiy-pedagogik fan sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur fanning asosiy vazifasi – adabiy ta'limni jamiyat taraqqiyoti, ta'lim tizimi modernizatsiyasi va global o'zgarishlar talablariga mos ravishda rivojlantirish, o'quv jarayoniga yangi metodlar, pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etishdan iborat. "Adabiyot o'qitish metodikasi" pedagogik fanlar tizimiga mansub o'laroq, ta'limning alohida turi bo'lish uchun talabning barchasiga javob bera oladi. Birinchidan, adabiyot o'qitish metodikasi o'rganadigan soha ilmdan boshqa biror o'quv fani tomonidan o'rganilmaydi. Ikkinchidan, mazkur fan ishlaydigan soha, ya'ni adabiy ta'limning har bosqichida badiiy asarlar ustida ishlashning optimal va samarali yo'llarini tadqiq etish, adabiy ta'limning nazariy asoslarini ishlab chiqish ulkan ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Uchinchidan, fan sifatida o'ziga xos tadqiqot obyekti, predmeti, maqsad-vazifalari, mazmuni va usullariga ega" [1, B. 11-12].

O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi – an'anaviy didaktika va zamonaviy pedagogika kesishgan nuqtada shakllanuvchi kompleks bilimlar tizimidir. U quyidagi ilmiy mohiyatlarni o'zida mujassam etadi: 1) nazariy mohiyat, 2) amaliy mohiyat, 3) tarbiyaviy mohiyat, 4) innovatsion mohiyat.

Nazariy mohiyat – adabiy ta'limning maqsadlari, tamoyillari, maz-

munini belgilab beruvchi ilmiy-nazariy asoslarni ishlab chiqadi. “Adabiyot o‘qitish metodikasi badiiy adabiyotni o‘qitish jarayoni bilan bog‘liq qonuniyatlarni o‘rganadi. Unda adabiyotshunoslik bilan pedagogikaning ayrim xususiyatlari uyg‘unlashadi. “Ammo bu ikkala fan ham uzluksiz ta’lim jarayonida adabiyotda nimani va qanday o‘qitish kerakligi masalasini hal qilib bera olmaydi” [2, B. 9]. Shundan kelib chiqsak, o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi – pedagogika, didaktika, adabiyotshunoslik, psixologiya va lingvodidaktika fanlarining kesishgan nuqtasida shakllanib, ulardan oziqlanadigan kompleks ilmiy-nazariy tizim sifatida qaraladi. Mazkur fan mohiyatining nazariy tamalini aniqlash, avvalo, metodika kategoriyalarining ilmiy-falsafiy asoslarini ochib berishni, adabiy ta’lim jarayonining maqsad va tamoyillarini aniqlovchi konseptual platformani belgilashni talab etadi. Chunki nazariy mohiyat – metodikaning amaliy vazifalarini asoslovchi negiz bo‘lib, u fanning epistemologik qiyofasini, ilmiy paradigmasini va ijtimoiy-pedagogik maqsadga yo‘naltirilganligini ifodalaydi.

Metodikaning nazariy mohiyati, birinchi navbatda, adabiy ta’limning maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarining ilmiy asosda aniqlanishiga bog‘liqdir. Bugungi global ta’lim makonida adabiyot fani “faqat badiiy asarni o‘qitish” vazifasi bilan chegaralanmay, o‘quvchi shaxsida milliy o‘zlikni anglash, estetik idrok, ma’naviy immunitet, badiiy tafakkur, kreativ kompetensiyalar, axloqiy-etik qarashlar tizimini shakllantirishga qaratilgan ko‘p qatlamli ta’lim kategoriyasiga aylangan. Shu nuqtayi nazardan, metodika nazariyasi adabiy ta’limning mazmuni qanday tanlanishi, u qaysi falsafiy-pedagogik tamoyillarga tayanishi, davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturi, o‘quv adabiyotlarining mazmuni qanday konstruksiya qilinishi kerakligi kabi fundamental savollarga ilmiy javob beradi.

Metodika fanining nazariy mohiyati, shuningdek, "adabiy ta’lim mazmuni" tushunchasining nazariy konstruksiyasini ham o‘z ichiga oladi. “Adabiyot o‘qitishning mazmuni, birinchi navbatda, dasturda ifoda etiladi. Bundan tashqari, darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, ko‘rsatmali qurollar, turli yordamchi vositalar ham ta’lim mazmunining puxta va chuqur bo‘lishini ta’minlaydigan unsurlardir” [6, B. 22]. Bu jarayonda o‘zbek adabiyoti namunalarining o‘quv dasturi uchun tanlanish mezonlari, ya’ni tarixiylik, badiiylik, tarbiyaviylik, milliylik, kompetensiyaviy yaroqlilik, yosh psixologiyasi bilan uyg‘unlik kabi mezonlar asosida ilmiy tahlil qilinadi.

Metodika nazariyasi adabiy ta’lim mazmunini to‘rtta qatlamda o‘rganadi: 1) ilmiy-badiiy mazmun; 2) ma’naviy-axloqiy mazmun; 3) lingvopoetik mazmun; 4) kompetensiyaviy natijaga yo‘naltirilgan mazmun. Mazkur qatlamlar muhiti metodikaning nazariy asoslarini belgi-

lab, filolog-pedagog tayyorlash tizimida adabiy ta’limning konseptual modelini yaratishga xizmat qiladi.

Nazariy mohiyatning muhim qatlami – adabiy ta’limning tamoyillari, qonuniyatlari va konseptual paradigmalarini asoslashdan iborat. O‘zbek adabiyoti metodikasida quyidagi nazariy tamoyillar alohida ajralib turadi: milliylik va universallik uyg‘unligi; badiiy asarni idrokiy (analitik) va emotsional (estetik) qabul qilishning integratsiyasi; shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim; faol-subyekt sifatida o‘quvchi modeli; matn asosidagi ta’lim; kompetensiyaviy yondashuv kabi metodik paradigmalar.

Nazariy mohiyat aynan shu tamoyillarni ilmiy asoslab, ularning ta’lim jarayonida qo‘llanish mexanizmlarini ochib beradi.

Metodika nazariyasi yana ta’lim jarayonining psixologik-pedagogik omillarini ilmiy tahlil qilishni ham o‘z ichiga oladi. Chunki badiiy matnni o‘qitish jarayoni – idrok, tasavvur, emotsiya, kognitiv jarayonlar, assotsiativ fikrlash, tafakkur bosqichlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, metodika fani bu jarayonlarning psixologik qonuniyatlari asosida o‘quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi ilmiy model yaratadi. Mazkur jihat o‘z navbatida nazariy mohiyatning ilmiy psixologiya bilan o‘zaro aloqadorligini namoyon etadi.

Nazariy mohiyatning yana bir muhim komponenti – metodika fanining ilmiy kategoriyalar tizimi va terminologik bazasini yaratishdir. Chunki metodika fani to‘liq shakllanishi, ilmiy mustaqilligi va nazariy maqomga ega bo‘lishi uchun uning o‘z kategoriyalari – “adabiy ta’lim mazmuni”, “matn ustida ishlash metodikasi”, “badiiy idrok”, “kompetensiya asosidagi adabiy ta’lim”, “estetik tarbiya”, “kognitiv bosqichlar bo‘yicha idrok jarayoni” kabi terminlarni ilmiy asosda izohlab berish muhim hisoblanadi. Terminologik tizimning yaratilishi metodikaning alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanganligini tasdiqlovchi asosiy belgidir. Eugen Wyster ta’kidlaganidek, terminlar maxsus fan yoki soha tushunchalarini aniq ifodalash uchun yaratilgan bo‘lib, ular birma’nolik (monosemiya) tamoyiliga asoslanadi [8].

Shu bilan birga, metodikaning nazariy mohiyati – fanning taraqqiyot qonuniyatlarini belgilovchi ilmiy tendensiyalarni aniqlashni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, adabiy ta’lim tarixan matnni yodlashga asoslangan yondashuvdan analitik-mantiqiy ta’limga, undan shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va raqamli-integrativ ta’lim modellariga o‘tgan. Bu esa metodika nazariyasida tarixiylik va zamonaviylik uyg‘unligining ilmiy asosda anglanishini taqozo etadi.

Ko‘rinadiki, metodika fanining nazariy mohiyati – adabiy ta’limni kognitiv, estetik, axloqiy va milliy-ma’naviy mezonlar asosida shakllan-

tiruvchi, o‘zining falsafiy-pedagogik asosi, ilmiy kategoriyalari, tamoyillari va paradigmasi mavjud bo‘lgan mukammal ilmiy tizimdir. Aynan ana shu nazariy zamin metodikaning amaliy yo‘nalishlarini belgilaydi, ta’lim mazmunining shakllanishiga ilmiy asos bo‘ladi va filolog- pedagoglar faoliyatida metodika fanining strategik ahamiyatini ta’minlaydi. Amaliy mohiyat – filolog-pedagoglarning o‘quv jarayonini tashkil etishi, dars konstruksiyasini yaratishi, o‘quvchilarni adabiyotga qiziqtirish yo‘l va shakllarini amaliy qo‘llashni o‘rgatadi.

Metodika fanining amaliy mohiyati – adabiy ta’lim jarayonining mazmuni, shakli, metod va vositalarini real o‘quv jarayoniga tatbiq etish, nazariy tamoyillarni pedagogik faoliyatda natija beruvchi uslubiy model sifatida joriy etish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ilmiy-amaliy jarayonni anglatadi. Agar metodika nazariyasi adabiy ta’limning strategik maqsadlari, konseptual tamoyillari va mazmuniy asoslarini belgilasa, uning amaliy vazifasi – aynan shu ilmiy konsepsiyalarni o‘quv amaliyotiga integratsiya qilish, ularni dars, darsdan tashqari faoliyat, mustaqil ta’lim, hamkorlikka asoslangan o‘qish kabi pedagogik shakllarda modellashtirish va samarali ishlashini ta’minlashdir. “...fan asoslarini o‘qitish asos e’tiboriga ko‘ra kollektiv xarakterga ega. Bundan kelib chiqib, pedagog o‘quvchilarining pozitiv ijtimoiy mazmunga ega o‘zaro aloqalarini hisobga olibgina qolmay, balki tizimli tarzda ta’minlab borishi ham kerak. Xullas, gap o‘qituvchi faoliyatining muhim sohasi – tashkilotchilik to‘g‘risida bormoqda”.

Amaliy mohiyatning markazida adabiy ta’limning amaliy texnologik konstruksiyasi – dars turadi. "Har qanday darsda o‘qituvchi – o‘quvchilar, o‘qituvchi – alohida o‘quvchi, o‘quvchilar – alohida o‘quvchi shaklidagi munosabatlar tashkil etilganini kuzatish mumkin. Ushbu shakllar o‘quvchilar jamoasidagi shaxslararo muloqotni ta’minlashga xizmat qilishi kerak” [7, B. 27]. Chunki dars – metodikaning real maydoni, pedagogik ta’sirning muayyan vaqt va makonda amalga oshadigan tezisidir. Shu ma’noda metodika amaliyoti – darsning tashkiliy modeli, ssenariysi, vaqt taqsimoti, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat bloklari, baholash komponentlari va refleksiya mexanizmlarini yaratish jarayonidir. Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv sharoitida adabiy ta’lim darslari o‘qituvchi markazlashgan modeldan o‘quvchi shaxsini faol subyektga aylantiruvchi modelga o‘tmoqda. Demak, metodikaning amaliy mohiyati o‘z tabiatiga ko‘ra jarayonning markazida o‘quvchini qo‘yuvchi, o‘quvchini mustaqil fikrlash, tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish, badiiy-estetik kechinma asosida o‘z pozitsiyasini shakllantirishga majbur qiluvchi o‘qitish ssenariysini yaratishga qaratilgan.

Amaliy mohiyatning yana bir o‘lchami – metod va usullar tizimi-

ni tanlash, moslashtirish va qo‘llash kompetensiyasidir. Bu ayni paytda "...sharoit uchun har qanday vazifalarni hal etishning eng qulay, eng ma’qul, to‘g‘ri variantlarini tanlash” [4, B. 71] omili bo‘lgan optimallashtirish bilan ham bevosita bog‘liq. Chunki metodika nazariyasi metodlarni tasniflaydi, ammo amaliy fan sifatida metodika – ularni o‘quv jarayonining maqsadi, sinf tarkibi, yosh psixologiyasi, matnning janr xususiyatlari hamda o‘quvchilar ehtiyojlariga mos holda qayta modifikatsiya qiladi. Masalan, Navoiy g‘azallarini o‘qitishda matn ustida ishlashning lingvopoetik tahlil usuli, 7-sinf o‘quvchilarida badiiy tafakkur uyg‘otish uchun dramatizatsiya va emotsional-qiyosiy tahlil, 10-sinfda adabiy esse va ijodiy yozuv texnologiyasi qo‘llanishi – metodlarning amaliy moslashuv mexanizmining natijasidir. Bu jarayonning ilmiy mohiyati – o‘qitish texnologiyalarini universal emas, balki kontekstga moslashtirilgan, situativ differensiallashtirishga asoslangan uslub sifatida qo‘llashni ko‘zda tutadi.

Shuningdek, amaliy mohiyat tarkibida pedagogik texnologiyalar, AKT va raqamli resurslarning tatbiqi alohida ahamiyat kasb etadi. XXI asr adabiy ta’limida matn bilan ishlash faqat auditoriya sharoitida amalga oshmaydi; elektron darsliklar, QR-resurslar, audio matnlar, badiiy asarning raqamli versiyasi, onlayn baholash platformalari, virtual kutubxona, integrallashgan STEAM loyihalar – barchasi metodikaning amaliy imkoniyatlarini kengaytiradi. Demak, amaliy mohiyat – adabiyot o‘qitish jarayonini raqamli ta’lim makoni, masofaviy va aralash o‘qitish sharoitiga moslab transformatsiya qilish jarayonini ham o‘z ichiga oladi.

Metodika fanining amaliy mohiyati pedagogning tayyorlanish jarayoni bilan ham uzviy bog‘liq. Chunki metodikaning haqiqiy amaliy qiymati – filolog-pedagogning kasbiy mahoratida namoyon bo‘ladi. Shu sababdan metodikaning amaliy mazmuni quyidagilarni ham qamrab oladi:

- dars ishlanmalari loyihalarini yaratish va ekspertlash,
- mikro-o‘qitish (microteaching) orqali o‘qituvchi kompetensiyasini shakllantirish,
- amaliyot maktablari bilan integratsiya tizimi,
- studentlar uchun metodik “laboratoriya darslari”,
- kuzatish, tahlil, refleksiya va diagnostika tajribalarini amalga oshirish.

Metodika amaliy mohiyatining eng asosiy natija ko‘rsatkichi – kompetensiyaviy o‘quvchi modelidir. Bunda metodika amaliyoti shaxsda quyidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqarishga yo‘naltiriladi: badiiy matnning mazmunini anglash; matnni kontekstual, lingvo-estetik tahlil qilish; o‘z nuqtayi nazarini asoslab bayon etish; ijodiy fikrlash asosida yangi

matn yaratish; kitobxonlik madaniyatini ongli shakllantirish; milliy qadriyatlarni anglash va ichki qabul qilish. Demak, amaliy natija – bilim emas, balki o‘quvchida shakllangan transformativ kompetensiyalar tizimidir.

Q. Husanboyeva ta’biri bilan aytganda, "...o‘qituvchi asar mazmuni yuzasidan taqdim etadigan savol va topshiriqlari bilan o‘quvchilarni uning syujetiga xos bo‘lgan voqealar, qahramonlar xarakteri va xatti-harakatidagi oqibatning kelib chiqish sabablarini aniqlashga yo‘naltirishi, shundan keyingina hodisani baholashga undashi maqsadga muvofiq bo‘ladi" [3, B. 29-30].

Amaliy mohiyatning yana bir jihati – baholash tizimining metodik konstruksiyasidir. Zamonaviy metodika baholashni faqat natija o‘lchovi sifatida emas, balki o‘quv jarayonining tarkibiy qismi sifatida ko‘radi. Formativ (jarayon davomida), summativ (yakuniy), portfolioga asoslangan baholash, rubrikalar, o‘z-o‘zini baholash va o‘zaro baholash mexanizmlari – amaliy metodikaning muhim komponentlari bo‘lib, ular o‘quvchini obyekt emas, subyekt sifatida ta’lim jarayonida faol ishtirok etishga jalb etadi. “Badiiy konstruktiv faoliyat ham o‘ziga xos ijoddir. U o‘quv materialiga tarbiyalanuvchilar yoshi, bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalari, moyilliklariga mos pedagogik shakl berishda namoyon bo‘ladi” [7, B. 32].

Demak, metodika fanining amaliy mohiyati – nazariy tamoyillarni o‘quv jarayonida jonlantiruvchi, ta’lim samaradorligini yuqori natija bilan ta’minlovchi, o‘quvchi shaxsini o‘zgartirishga qaratilgan sistemali pedagogik faoliyatdir. U dars modeli, metod tanlovi, didaktik vositalar, AKT integratsiyasi, baholash tizimi va o‘qituvchi kompetensiyasining shakllanishida o‘zining real ko‘rinishini namoyon etadi. Aynan shu jihat metodikani abstrakt ilmiy yo‘nalishdan amaliy natija beruvchi mustaqil ilmiy-pedagogik tizim darajasiga ko‘taradi.

Tarbiyaviy mohiyat adabiyot o‘qitishda milliy-ma’naviy qadriyatlar, estetik did, badiiy tafakkur, kitobxonlik madaniyati, ma’naviy immunitetni rivojlantirishga qaratiladi.

Filolog-pedagog tayyorlash tizimida o‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi nafaqat ilmiy-nazariy va amaliy yo‘nalishlarga, balki teran tarbiyaviy vazifalarga ham ega bo‘lgan kompleks fan sifatida e’tirof etiladi. Metodika fanining tarbiyaviy mohiyati, eng avvalo, ta’lim jarayonida shaxsning ma’naviy-axloqiy kamoloti, milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ulari, burch va mas’uliyat hissining shakllanishiga xizmat qilishi bilan belgilanadi. Zero, adabiyot fani – badiiy matn orqali insonga ruhiy-psixologik ta’sir ko‘rsatish, ichki dunyosini uyg‘otish, ijtimoiy ongini yuksaltirish imkonini beruvchi noyob tarbiya vositasidir. Shu

nuqtayi nazardan qaralganda, metodika fanining tarbiyaviy mohiyati – adabiy materialni qanday o‘qitish kerakligi emas, balki nimani, qanday maqsadda, qaysi tarbiyaviy natija yo‘lida o‘qitish kerakligini aniqlaydi. Q. Yo‘ldoshev boshqa fanlardan farqli o‘laroq, tarbiyaviy maqsadni adabiyot o‘qitishda ta’limiy maqsaddan oldin qo‘yadi [6].

Metodik yondashuvning tarbiyaviy mazmuni o‘zbek adabiyotidagi badiiy timsollar, voqelik tasviri, tarixiy shaxslar, millatning or-nomusi va qadriyatlarini ifodalovchi mazmunlar orqali o‘quvchi shaxsida milliy identitetni shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, metodika shaxsning axloqiy ongini, jamiyatdagi tutumini, muomala madaniyatini, estetik didini shakllantiruvchi pedagogik tizim sifatida ko‘riladi. Bu jarayon o‘qituvchi faoliyatining interfaol, maqsadli va ma’naviy-axloqiy jihatdan uyg‘un holda tashkil etilganida samarali kechadi.

Metodikaning tarbiyaviy mohiyati, shuningdek, o‘qituvchining dunyoqarashi va shaxsiy fazilatlari bilan ham o‘zaro bog‘liq. Badiiy matnni tanqidiy fikrlash, mulohaza yuritish, bahs-munozara va kuzatuv asosida o‘rganish jarayonlarida o‘quvchilar o‘z hayoti bilan bog‘liq xulosalar chiqaradi, ma’naviy o‘zlashtirish tamoyili kuchayadi. Ayniqsa, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Oybek, Pirmat Qo‘shoqboyev, Erkin Vohidov singari adiblar asarlaridagi ma’naviyat, shijoat, millat taqdiri, vijdon, halollik, muhabbat va sadoqat g‘oyalari – tarbiyaviy komponent sifatida metodikada markaziy ahamiyat kasb etadi.

Metodik jarayonda tarbiyaviy maqsadlar ikki qatlamda yuzaga chiqadi:

1. Bevosita (ochiq) tarbiyaviy maqsadlar – ma’lumot berish, qadriyatni o‘rgatish, ma’naviy tushuncha shakllantirish (vatanparvarlik, g‘urur, odob, halollik).

2. Bilvosita (yashirin) tarbiyaviy ta’sirlar – o‘quvchi ongiga estetika orqali ta’sir qilish, obrazlar dunyosidan ruhiy ta’sirlanish, empatiya va hamdardlikning kuchayishi.

Tarbiyaviy mohiyat metodikaning boshqa komponentlari – didaktik tamoyillar, metodlar, o‘quv materialini tanlash mezonlari bilan uzviy bog‘liqdir. Xususan, adabiy asarlarni tematik tanlash jarayoni ham tarbiyaviy mezonlarga asoslanishi zarur: ijtimoiy-hayotiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-psixologik ta’sir salohiyati yuqori matnlar tanlanadi. Shuningdek, metodikada tarbiyaviy ta’sir mexanizmi – suhbat, refleksiya, esse yozish, dramatizatsiya, ijodiy tahlil, guruhli fikrlash va baholash orqali amalga oshiriladi.

Demak, metodika fani tarbiyaviy mohiyatiga ko‘ra o‘qituvchini dars o‘tish texnikasi bilan emas, balki ta’lim jarayonini tarbiya bilan uyg‘unlashtirish san’ati bilan qurollantiruvchi pedagogik-nazariy tizimdir.

Tarbiyaviy Model (kontseptual sxema)

1. Asosiy g‘oya: axloqiy-estetik tarbiya – bosh maqsad.
2. Metodik jarayonning komponentlari:

№	Komponent nomi	Mazmuni va elementlari
1	Matn tanlash mezonlari	ma’naviy mazmun, milliy qadriyat
2	Metodlar va usullar	suhbat, tahlil, dramatizatsiya, refleksiya
3	Interfaol faoliyat	bahs, guruh ishlari, empatiya mashqlari
4	Natija	O‘quvchi shaxsining shakllanishi

3. Shakllanadigan sifatlar (yakuniy natija):

Milliy identitet
Estetik did
Axloqiy ong
Vatanparvarlik
Ma’suliyatlilik

Innovatsion mohiyat – raqamli texnologiyalar, AKT imkoniyatlari, virtual metodik resurslar, kompetensiyaviy yondashuvning adabiy ta’limga integratsiyasini ta’minlaydi. “Raqamlashtirishning yuqori sur’atlari, IT texnologiyalarning rivojlanishi, shuningdek, hayotimizning barcha sohalarida masofaviy aloqa vositalaridan keng va ommaviy foydalanishi bilan zamonaviy ta’lim oldida yangi chaqiriqlar paydo bo‘lmoqda, ularning yechimi esa pedagog xodimlar hamda ta’lim sohasidagi siyosiy rivojlanish yo‘nalishi (vektorlari) zimmasiga tushadi” [9, B. 19].

O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi zamonaviy filolog-pedagog tayyorlash tizimida nafaqat an’anaviy didaktik yondashuvlarga tayanadi, balki innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va pedagogik transformatsiyalarni o‘zida mujassam etgan ochiq tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Innovatsion mohiyat – metodika fanining jamiyat taraqqiyoti, raqamli makon kengayishi va ta’lim paradigmasining o‘zgarishlaridan kelib chiqib, doimiy rivojlanishga, yangilanishga, o‘qituvchi va o‘quvchilar faoliyatiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga yo‘naltirilganligini anglatadi.

Ta’lim texnologiyalari rivojlanishi fonida metodika fani an’anaviy matn tahlili va og‘zaki bayon metodlari bilan cheklanmay, virtual platformalar, elektron adabiyot darsliklari, multimodal badiiy matn tahlili,

onlayn seminar va vebinarlar, sun’iy intellekt asosida adaptiv o‘rganish tizimlari orqali kengayib bormoqda. Bu jarayon metodika mohiyatida innovatsion kompetensiya tushunchasini yuzaga keltiradi, ya’ni o‘qituvchi o‘z kasbiy faoliyatida shunchaki bilim beruvchi emas, balki raqamli ta’lim dizayneri, kontent yaratuvchi, masofaviy o‘qitish metodlarini boshqaruvchi subyekt sifatida shakllanishi talab qilinadi.

Metodika fanining innovatsion mohiyatida quyidagi nazariy komponentlar ajralib turadi:

1. Innovatsion-didaktik yondashuv – ta’lim mazmuni va maqsadlarini yangi ijtimoiy talablar asosida qayta loyihalash, kompetensiyalar asosida baholash va jarayonni modullashtirish.

2. Texnologik integratsiya – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interfaol ta’lim platformalari (Google Classroom, Moodle, ZiyoNet, Quizizz, Mentimeter), grafik-organayzerlar va sun’iy intellektga asoslangan o‘quv ilovalarining dars jarayoniga tatbiqi.

3. Metodik innovatsiyalar modeli – pedagogik tajribani sinovdan o‘tkazish, tahlil qilish va tarqatishning ilmiy jarayoni sifatida (experiment – monitoring – ekspertiza – implementatsiya – refleksiya) ko‘rilishi.

4. Mualliflik metodlari va kreativ pedagogika – o‘qituvchi tomonidan yangi o‘qitish shakllarini ishlab chiqish, badiiy tahlilning kreativ usullarini qo‘llash (storytelling, podkast asosida tahlil, dramalashtirilgan muhokama, “rol o‘zgartirish” debati).

Innovatsion mohiyatning asosiy xususiyati – metodikani statik tizim emas, balki dinamik rivojlanishga ega, har bir yangi ijtimoiy-real o‘zgarishga moslashuvchi ochiq metodik ekotizim sifatida talqin qilinishi bilan belgilanadi. Innovatsiyalarning metodika fani mohiyatiga kirib kelishi o‘qituvchi shaxsida quyidagi kasbiy sifatlarning shakllanishini talab etadi: media savodxonligi, raqamli tafakkur, tezkor moslashuv, kontent yaratish ko‘nikmasi, hamkorlikda o‘qitish kompetensiyalari, tizimli va dizaynerlik fikrlash.

Adabiy ta’lim predmetining badiiy, estetik, ruhiy va tarixiy tabiatini hisobga olgan holda innovatsion metodlar nafaqat texnik yangilanish, balki interfaol, empatik, hissiy-idrokiy jarayonlarni qo‘llab-quvvatlovchi psixopedagogik innovatsiya sifatida talqin qilinishi lozim. Masalan, badiiy matnni raqamli xarita (digital mind-map) asosida yechish, qahramon kechinmalarini VR-sahnalashtirish orqali tasavvur qilish, “adabiy podkast-refleksiya” metodidan foydalanish – innovatsiya mohiyatining yangi qirralarini anglatadi.

Metodika fanining innovatsion mohiyati – ta’lim mazmuni, shakllari va natijalarini yangilash, raqamli va kreativ pedagogika imkoniyat-

laridan foydalangan holda o‘zbek adabiyotini o‘qitish jarayonini transformatsiyalashga xizmat qiluvchi ilmiy-nazariy kategoriyadir. Uning mohiyatidan kelib chiqqan holda adabiyot metodikasi endi nafaqat “qanday o‘qitish kerak” savoliga, balki “qanday innovatsion samaraga erishish mumkin” degan strategik masalaga javob beradigan fan sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy adabiy ta’lim metodikasi shunchaki o‘qitish usullari majmuasi emas, balki nazariy asoslar, amaliy ko‘nikmalar, tarbiyaviy maqsadlar va innovatsion yondashuvlarni o‘zida mujassam etgan yaxlit ilmiy-pedagogik tizimdir. Maqolada tahlil etilganidek, metodika fanining nazariy va amaliy mohiyati o‘quvchi shaxsini ta’lim markaziga olib chiqish, ularda nafaqat badiiy matnni tahlil qilish malakasini, balki milliy o‘zlikni anglash, estetik did va ma’naviy immunitet kabi hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarning adabiyot darslariga integratsiyalashuvi esa, fanning zamon talablariga mos ravishda transformatsiyalashuvini ta’minlab, bo‘lajak filolog-pedagoglarning kasbiy mahoratini yangi bosqichga ko‘tarishda strategik ahamiyat kasb etadi. Zero, adabiy ta’limning samaradorligi nazariy bilimlar va amaliy texnologiyalarning tarbiyaviy mohiyat bilan uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot o‘qitishh metodikasi. Dasturiy qo‘llanma. Tuzuvchilar: Q. Yo‘ldoshev, O.Madayev, A.Abdurazzoqov. – T.: RTM, 1994. – 49 b.
2. Husanboyeva Q. Niyazmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi.
1- kitob. –¬¬¬ T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 400 b.
3. Husanboyeva Q. Niyazmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi.
2-kitob. – T.: Innovatsiya-Ziyo, 2022. – 392 b.
4. Jurayev B.T. Pedagogik va psixologik fanlarni o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Buxoro: Fan va ta’lim, 2022. – 326 b.
5. Kan-Kalik V.A., Xazan V.I. Psixologo-pedagogicheskie osnovbi prepodavaniya literaturbi v shkole. – Moskva.: "Prosvernenie”, 1988. – 278.
6. Qozoqboy Yo‘ldosh, Muhayyo Yo‘ldosh. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – 408 b.
7. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: O‘qitish muammolari va yechimlar. –T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009. – 244 b.
8. Wuster E. Introduction to the General Theory of Terminology and Terminological Lexicography. Springer., 1979.